



“MAVLIDI SHARIF” QO‘LYOZMALARIGA ULAMOLAR TOMONIDAN BERILGAN TAQRIZLARING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Abdulbosit Qobulov

Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent islom instituti

Tahfizul Qur'on kafedrasida katta o'qituvchisi,
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18465650>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Mavlid – ismu zamon va makon siyg'asidagi so'z bo'lib, musulmonlar urfida Xotamul anbiyo, Payg'ambarlar imomi Muhammad sollallohu alayhi vasallam tug'ilgan makon va zamonga nisbatan aytiladi. Siyrat – Rasululloh alayhis salomning yashab o'tgan hayot yo'llari.

ABSTRACT

Mazkur maqolada payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning mavlidi shariflari haqida ulamolarning so'zlarini bayon qilingan.

Ma'lumki, dunyo musulmonlari orasida Muhammad sollallohu alayhi va sallamning siyratlari haqida ko'plab kitob va risolalar bitilgan. Shunday bo'lsada hali hanuz yilda bir bora u zot alayhissalomning tavalludlarini nishonlash mumkin yoki ta'qiqlangani borasida ko'plab ixtiloflar yuzaga kelgan.

Mavlidi sharif qiladigan musulmonlar, uning boshlanish tarixini ikki olam sarvari Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga yetib boradi, deydilar. Chunki u zot dushanba kuni ro'za tutar: “Bu (dushanba) men tug'ilgan kun”, – der edilar. (Abu Hurayra roziyallohu anhudan Muslim rivoyati).

Dastlab siyrat haqida yozilgan kitoblar ko'p jildli, roviylar sanadi bilan bitilgan. Islom dini keng tarqalib, turli millat va elatlar musulmon bo'ldilar. Turli sabablarga ko'ra ko'p jildli, roviylar sanadi bilan yozilgan kitoblarni o'qib-o'rganish mushkul bo'lib qoldi. Ulamolar bundan tashvishga tushib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning dastlabki davrlarini qisqa risola yoki nazm yo'li bilan keng ommaga taqdim qildishga kirishdilar. Natijada mavlid nomli siyrat kitoblari yuzaga keldi. Maqsad qanday qilib bo'lsada, siyratni insonlarga o'rgatish edi. Imomi Suyutiyning aytishicha, mavlidi sharifni birinchi bo'lib ommaviy va bir nizomda o'tkazgan kishi Irbil podshohi Muzaffar Abu Sa'idiy Kukbari Zayniddin Ali ibn Buktakindir (hijriy 549–630 h/s). Hadis ulamolardan ko'plari uni ishonchli kishi sifatida e'tirof qilganlar.

Imomi Suyutiy va Zahabiylar aytadi: “U ulug', saxiy podshohlardan biri edi. Safhqosiyun masjidini qurdirgan”. Hozirda u

masjidning minoralari saqlanib qolgan”. Hofiz Zahabiy aytadi: “Podshoh Muzaffar tavozeli, sunnatga amal qiluvchi, fuqaho hamda muhaddislarga muhabbat qo‘ygan yaxshi inson edi”.

Ibn Kasir aytadi: “U ro‘bi‘ul avval oyida mavlidi sharif qildirar edi. O‘zi gavdali, pahlavon, shijoatli, oqil, olim va odil edi. Alloh uni o‘z rahmatiga olsin. Yotgan joyini mukarram aylasin”, – deb yozadi.

Mavlid – ism-u zamon va makon siyg‘asidagi so‘z bo‘lib, musulmonlar urfida Xotamul anbiyo, Payg‘ambarlar imomi Muhammad sollallohu alayhi vasallam tug‘ilgan makon va zamonga nisbatan aytiladi. Tug‘ilgan joylari, ota-onam u zotga fido bo‘lsin, Makkai Mukarramada Bani Hoshim qabilasi, Abu Tolibning uyida, hozirda “Ommaviy kutubxonada” bino qilingan. Tug‘ilgan zamonlari esa “Fil hodisa”si bo‘lib o‘tgan yilning boshida ro‘bi‘ul avval oyining o‘n ikkinchi kuni, dushanba subhda, milodiy yil hisobi bo‘yicha 571-yil 21-aprelga to‘g‘ri keladi [3.7-bet].

Mavlid haqida xiloflar. Yettinchi asrda mavlidin nabiy haqida kitoblar yozila boshladi. Ibn Dihyaning mavlidi bunga yorqin misol. O‘sha paytlarda mavlidlarda bid‘atlar keng tarqalgani uchun ulamolar o‘sha bid‘atlarni inkor qildilar, hatto mavlidning aslini ham inkor qilishga o‘tdilar. Ulardan biri Fokihoniy nomi bilan shuhrat topgan molikiylarning faqihi Tojuddin Umar ibn Ali al-Laxmiy al-Iskandariydir. Mavlidga raddiya sifatida maxsus “al-Mavridu fil kalaami alal mavlid” kitobini ham tasnif qilgan. Imom Suyutiy uni to‘laligicha “Hisnul maqsid” risolasida keltirgan.

Shayx Muhammad Fozil Oshur aytadi: “To‘qqizinchi asrda insonlar mavlidni joizligi va man qilish orasida edilar ya‘ni: mavlid qilishni joiz sanovchi va inkor etuvchilar bo‘lgan. Imom Suyutiy, ibn Hajar Asqaloniy, ibn Hajar Haytamiylar undagi bid‘atlarni inkor qilish bilan bir qatorda mavlid qilishni chiroyli sanadilar. Ularning fikri Ibrohim surasini 5-oyati va “Bu (dushanba) men tug‘ilgan kun” hadislarida o‘z aksini topadi. Ular Ibrohim surasini “Va ularga Allohning kunlarini eslat!” oyatidagi kunlarni ne‘mat deb tafsir qilganlar. Qaysi ne‘mat rahmat payg‘ambarini dunyoga kelishidan ortiq bo‘lishi mumkin? Raddiyalarga javob berishda uzoqqa bormay, Imom Suyutiyning “Hisnul maqsid” risolasida Tojuddin Umar ibn Ali al-Laxmiy al-Iskandariyga bergan jovobiga muxtasar qilib kifoyalanamiz. Fokihoniy: Mavlidni Islom faqihlari, ulamolar, zamon va makon quyoshlari bo‘lgan ahli toatlarning peshvolaridan birortasi qilmagan. Yana u haqida kitob va sunnatda asos yo‘q.

Imom Suyutiy: Bir ishni bilmaslikdan uning mavjud emasligi kelib chiqmaydi. Hofizlar imomi Abul Fazl ibn Hajar sunnatdan sobit bir asl chiqardi [3. 299-304 bet].

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا قَالَ قَدِمَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ الْمَدِينَةَ فَرَأَى الْيَهُودَ تَصُومُ يَوْمَ عَاشُورَاءَ فَقَالَ مَا هَذَا قَالُوا هَذَا يَوْمٌ صَالِحٌ هَذَا يَوْمٌ نَجَّى اللَّهُ بَنِي إِسْرَائِيلَ مِنْ عَدُوِّهِمْ فَصَامَهُ مُوسَى قَالَ فَأَنَا أَحَقُّ بِمُوسَى مِنْكُمْ فَصَامَهُ وَأَمَرَ بِصِيَامِهِ رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَمُسْلِمٌ

O Ibn Abbas

roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam Madinaga kelib yahudiyalar Oshuro kuni ro‘zasini tutayotganlarini ko‘rdilar va: “Bu nima?” – dedilar. “Bu – solih kundir. Bu – Alloh Bani Isroilni dushmanidan qutqargan kun. O‘shanda Muso uning ro‘zasini tutgan”, – dedilar. Ul zot sollallohu alayhi vasallam: “Men sizlardan ko‘ra Musoga haqliroqman”, – dedilar, va uning ro‘zasini tutdilar va tutishga amr qildilar” [2. 20-bet].

Buxoriy va Muslim rivoyati. Hadisdan olinadigan foydalar: Alloh taologa maxsus bir kunda ne‘mat bergani yoki baloni daf qilgani uchun shukr qilmoq; O‘sha ishni har yili ana shu kunda takrorlash joizligi. Alloh taologa shukr qilish – sajda, ro‘za tutish, sadaqa qilish va Qur‘on

tilovati kabi ibodatlar bilan bo'ladi. Qaysi ne'mat rahmat payg'ambarini dunyoga kelishidan ortiq bo'lishi mumkin?! Shunga binoan, ashuro kunidagi Muso alayhissalom qissasiga mos bo'lishi uchun aynan o'sha kunni tayin qilish lozim. Kim bularni mulohaza qilmasa, mavlid amalini oyning har qaysi kunida qilaveradi. Yanada keng olib yilning istalgan kunida mavlid amaliga ijozat berganlar ham yo'q emas. Unda mavlid amalini asliga bog'liq bir qancha gaplar bor. Mavlidlarda qilinadigan ishlarga kelsak, yuqorida o'tganidek sajda, ro'za tutish, sadaqa qilish, Qur'on tilovati, faqirlarni taomlantirish, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamni madh etuvchi, qalblarni junbushga keltiruvchi taqvo to'g'risidagi she'rlarni o'qish, yaxshi ishlarni qilish va oxirat uchun amal qilish kabi Alloh taolaga shukr qilish ma'nosini ifodalovchi narsalar bilan cheklanish lozim. Imom Suyutiy:

Avvalo, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning tavalludlari biz uchun eng ulug' ne'mat, vafotlari esa eng katta va eng og'ir musibatdir. Shariat ne'matlarga shukrona qilishga, musibat yetganda esa uni yashirishga va sabrli bo'lishga buyuradi. Shariat bola tug'ilganda, aqiqa qilishga buyurdi. U(aqiqa) tug'ilgan bolaga xursand bo'lib, shukrona izhor qilish uchundir. Birov o'lganda esa jonliq so'yishga buyurmadi. Balki, baqir-chaqir qilib yig'lashdan, betoqatlik va sabrsizlikdan qaytardi. Demak, shariat qoidalari robi'ul avval oyida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning vafoti bo'lgani uchun hafa bo'lishga emas, tavalludlariga xursandchilik izhor qilish chiroyli ekanligiga dalolat qiladi.

Maqolamiz so'ngida mavlid kitobidan Ja'far Barzanjiy rahmatullohi alayhining «Iqdul-javhar fi mavlidi an-Nabiy al-Azhar» asaridan bir bo'limini tarjimai bilan keltirib o'tamiz:

Rabiulavval oyida, xususan ushbu oyning o'n ikkinchi kunida mavlid marosimlari o'tkazish va bu marosimlarda mavlid asarlaridan va so'z ustalarining na'tu madhlaridan o'qib, suyukli Rasulimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning tavallud oylarini tantali ravishda o'tkazish musulmon olamida taqriban ming yildan beri davom etib kelayotgan an'analardan biri hisoblanadi. Islom olamining ajralmas qismi bo'lgan jonajon Vatanimizda ham bu an'ana o'ziga xos uslubda o'tkazib kelingan. Bizda eng ko'p tarqalgan mavlid asari Ja'far Barzanjiy rahmatullohi alayhining «Iqdul-javhar fi mavlidi an-Nabiy al-Azhar» (Porloq yuzli Nabiyning mavlidlari xususidagi gavhar marjon) nomli asaridir. Bu kitob bizda shunchalik keng tarqalganki, xalq o'rtasida mavlid deyilsa, faqat shu asar tushuniladigan bo'lib qolgan.

الْجَنَّةُ وَ نَعِيمُهَا سَعْدٌ لِمَنْ يُصَلِّي وَ يُسَلِّمُ وَ يُبَارِكُ عَلَيْهِ اللَّهُمَّ صَلِّ وَسَلِّمْ وَ بَارِكْ عَلَيْهِ

Jannat va uning ne'matlari (Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga) salotu salom, baraka tilaydigan kishilar uchun baxtu saodatdir.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan boshlayman.

Birinchi atr

Muqaddima

أَبْتَدِئُ الْإِمْلَاءَ بِاسْمِ الذَّاتِ الْعَلِيَّةِ مُسْتَبْرَأًا فَيُضِنَ الْبَرَكَاتِ عَلَيَّ مَا آتَاهُ وَ أَوْلَاهِ

Oliy Zotning nomi ila imloni boshlar ekanman, U Zotdan bizga bergan va bizni ega qilgan ne'matlari ustiga yana fayzu barakotlarni mo'l-ko'l qilib berishini so'rayman.

وَ أَنْبِيَّ بِحَمْدِ مَوَارِدِهِ سَائِعَةً هَنِيئَةً مُمْتَنِّئًا مِنَ الشُّكْرِ الْجَمِيلِ مَطَايَاهِ

Ikkinchidan, chiroyli shukr ulovlariga mingancha, obgiridan¹ olingan suvi yutumli va hazmi yengil bo'lgan hamdlarni aytaman.

وَأَصْلِي وَأَسْلِمٌ عَلَيَّ النُّورِ الْمُصَوِّفِ بِالنَّقْدِ وَالْأَوْلِيَّةِ الْمُنتَقِلِ فِي الْعُرْرِ الْكَرِيمَةِ وَالْجِبَاهِ

Ilgarilik va birinchilik vasfi ila siftlangan, ulug'vor bo'lgan porloq manglaylarda, peshonalarda ko'chib yuruvchi Nurga (Muhammad sollallohu alayhi vasallamga) salovatu salomlar aytaman.

وَأَسْتَمْنِحُ اللَّهَ تَعَالَى رِضْوَانًا يَخُصُّ الْعَنْزَةَ الطَّاهِرَةَ النَّبَوِيَّةَ وَيَعُمُّ الصَّحَابَةَ وَالْأَتْبَاعَ وَمَنْ وَالَاهُ

Alloh taolodan nabaviy, pok ahli baytga xos bo'lgan hamda sahobayu tobeinlar va ularni do'st tutganlarni o'z ichiga oladigan roziligini tilayman.

وَأَسْتَجِدِّيهِ هِدَايَةً لِسُلُوكِ السَّبِيلِ الْوَاضِحَةِ الْجَلِيلَةِ وَحِفْظًا مِنَ الْعَوَايَةِ فِي خَطِّ الْأَخْطَاءِ وَخُطَاهُ

U Zotdan yana ochiq-oydin, ravshan yo'llarda yurishga hidoyat qilishini hamda xatokorlik o'rinlarida va yo'llarida adashib yurishdan saqlashini yolvorib so'rayman.

وَأَنْشُرُ مِنْ قِصَّةِ الْمَوْلِدِ النَّبَوِيِّ بُرُودًا حَسَنًا عَبَقْرِيَّةً نَاطِمًا مِنَ النَّسَبِ الشَّرِيفِ عِفْدًا تَحْلِي الْمَسَامِعِ بِخُلَاهُ

Men o'sha ulug' nasabdan bezaklarini quloqlar o'ziga ziynat qilib taqib oladigan bir munchoq tizib, nabaviy mavlid* qissasidan go'zal va g'aroyib bir chopon qilib tarqatamoqchiman.

«Mavlid» aslida tug'ilish, tug'ilgan vaqt va payt degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z ko'pincha Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tug'ilishlariga va uni nishonlashga nisbatan ishlatilib, keyinroq shu yig'inlarda o'qiladigan Nabiy sollallohu alayhi vasallamning siyratlariga doir qisqacha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, ma'lum janrdagi risolalar uchun ham qo'llaniladigan bo'lib qolgan. Bu yerda aynan shu ma'no nazarda tutilgan.

وَاسْتَعِينُ بِحَوْلِ اللَّهِ تَعَالَى وَفُوتِهِ الْقَوِيَّةِ فَإِنَّهُ لَأَحْوَلُ وَلَا قُوَّةَ إِلَّا بِاللَّهِ

Men Alloh taoloning qudrat va kuchli quvvatidan yordam talab qilaman. Zero, Allohdan o'zgada na qudrat, va na quvvat bor.

عَطِّرِ اللَّهُمَّ قَبْرَهُ الْكَرِيمَ بِعَرْفِ شَدِيدٍ مِنْ صَلَاةٍ وَتَسْلِيمٍ اللَّهُمَّ صَلِّ وَسَلِّمْ وَبَارِكْ عَلَيْهِ

Allohim! U zotning sharafli qabrlarini salovatu salomning muattar hidlari bilan xushbo'y qilgin. Allohim! U zotga salovatu salom va barakotingni yog'dirgin!

Izoh: Bu ibora duo shaklidagi salovat bo'lib, ushbu mavlid kitobida mavzular o'rtasini ajratish uchun, bir pardadan boshqasiga o'tishda ajratuvchi naqorat bo'lib xizmat qiladi.

Bu naqorat «xushbo'y qilgin» degan ma'noni anglatuvchi «attir» kalimasi bilan boshlangani uchun, u bilan ajratilgan har bir bo'lak iste'molda «atr» deb nomlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsir hilol. – Toshkent: Hilol nashr, 2007.
2. Imom al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Bayrut: Doru ibn Kasir, 2005.
3. Hasanxon Yahyo Abdulmajid. Mavlid. – Toshkent: Hilol nashr, 2015z

¹ Obgir – daryo va anhorlardan suv olishga moslangan maxsus joy.